

EKSTREMIZM, SEPARATIZM VA AQIDAPARASTLIKNI TARG'IB QILUVCHI
MATERIALLARNI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA
CHEGARASIDAN O'TKAZISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR

Mirjon Mo'minovich Raxmatov

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Tergov faoliyati” mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

E-mail: rahmatov1778@gmail.com.

Phone: +99899 862-50-54.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10636952>

Annotatsiya. Maqolada ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishga qarshi huquqiy kurash va tashkiliy mexanizmlari yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida umumiylar xulosalar berilgan, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurashish bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: bojxona organlari, kontrabanda jinoyati, ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik, noqonuniy aylanmasi, jinoyat, tergov harakatlari, tergovga qadar tekshiruv, javobgarlik, jazo.

**ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ПЕРЕДАЧЕЙ МАТЕРИАЛОВ,
ПРОДВИГАЮЩИХ ЭКСТРЕМИЗМ, СЕПАРАТИЗМ, И ИДЕОЛОГИЮ ЧЕРЕЗ
ТАМОЖЕННУЮ ГРАНИЦУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Аннотация. В статье описаны правовая борьба и организационные механизмы против перемещения через таможенную границу Республики Узбекистан материалов, пропагандирующих экстремизм, сепаратизм или фанатизм. На основе проведенного исследования сделаны общие выводы, даны практические рекомендации по борьбе с незаконным оборотом материалов, пропагандирующих религиозный экстремизм, сепаратизм и фанатизм.

Ключевые Слова: таможенные органы, контрабандная преступность, экстремизм, сепаратизм, фанатизм, незаконный оборот, преступность, следственные действия, досудебное расследование, ответственность, наказание.

**CRIMES RELATED TO THE TRANSFERRING MATERIALS PROMOTING
EXTREMISM, SEPARATISM AND IDIOLOGY ACROSS THE CUSTOMS BORDER
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Abstract. The article describes the legal struggle and organizational mechanisms against the transfer of materials promoting extremism, separatism and fanaticism across the customs border of the Republic of Uzbekistan. Based on the conducted research, general conclusions are given, practical recommendations are given to fight against the illegal trade of materials promoting religious extremism, separatism and fanaticism.

Key words: customs authoritties, smuggling crime, extremism, separatism, fanaticism, illegal circulation, crime, investigative actions, pretrial investigation, responsibility, punishment.

KIRISH

“Hammamizga ma’lumki, hozirgi vaqtida yon atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xayfi tobora kuchayib bormoqda”¹.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Hozirgi zamон xalqaro munosabatlari o’zining ko’lami, tabiatи va mazmuni jihatidan boyiganligi bilan ajralib turadi. Ularning negizini esa xavfsiz hamkorlik tashkil etadi. XXI asrning boshida xalqaro hamjamiyat o’z taraqqiyotining murakkab davrini boshidan kechirmoqda. Bu davr fundamental muammolar va xalqaro xavfsizlikka real tahdidlarning ko’payishi bilan tavsiflanadi.

Bugungi davrda davlat boshqaruvi organlarining “Davlat — inson uchun” tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo’nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida, qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sudhuquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo’naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo’nalishi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonning 16-maqsadiga muvofiq, Jamoat xavfsizligini ta’minalash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish lozimligi alohida belgilab qo‘ylgan.

Asosiy qism. XXI asrga kelib texnikaning keng rivojlanishi ular ustidan bojxona nazoratini ta’minalashning yangi shakllarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Avvallari, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan, ekstremistik, separatistik, aqidaparastlik, terroristik, pornografik va shunga o’xhash mazmundagi materiallar bosma nashrlar (kitob, varaqqa) ko’rinishida olib o’tilib, ko’paytirilib, tarqatilgan bo’lsa, hozirda bunday materiallar elektron ma’lumot tashuvchi tashqi xotiralarda olib o’tilmoqda. Ya’ni, bu kabi materiallarni noutbuk, smartfon, uyali telefon, xard disk, USB fleshka va boshqa shunga o’xhash qurilmalar xotirasiga yozgan holda bojxona chegarasi orqali olib o’tilishi kuzatilmoqda.

Shu sababli, bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan fuqarolarning axborot tashuvchi qurilmalarini nazoratdan o’tkazish mamlakatimiz hududiga olib kirilishi ta’qilangan materiallarni bojxona nazoratidan yashirinchha olib kirilishini oldini olishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar kontrabandasiga qarshi kurashish Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” asari T: “O’zbekiston”-2017-y., 206-bet.

Mazkur faoliyatni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (146-modda), “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi (7-modda), “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (8-modda), “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi (10-modda), “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (2004-y), “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (2018-y), “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi (2010-y), “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (2021-y) Qonunlar, JPK va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va fosh etish orqali mazkur jinoyatga qarshi kurash olib boradilar.

Dunyoda terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar soni izchil oshib borayotgan (2016-yilda ko‘plab mamlakatlarda turli hajmdagi 1787 ta terakt sodir etilgan. Dunyoda terrorizm qurbanlari statistikasi 13759 nafar kishi halok bo‘lgan, 16683 nafar kishi jarohatlangan²; 2020-yilda 15 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan har o‘n sakkizinchı yer aholisi, ya’ni 284 million kishi (*aholining 5,6%*) oxirgi 12 oy ichida kamida bir marta giyohvandlik vositalarini iste’mol qilgan³; Bolalar fondi YUNISEF ma’lumotlariga qaraganda shimoli-sharqiyo Nigeriyada 2019-yil 1-yanvardan 17-iyun oralig‘ida odam bombasi sifatida ishlatilgani aytilgan bolalar sonini 5 nafarga yetkazdi. 2018-yilda xushkudlik hujumlarida 48 nafar bola, jumladan 38 nafari qiz bolalar o‘z joniga qasd qiluvchi terrorist sifatida qurban bo‘lgan⁴), ularga qarshi kurashda maxsus bilim va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ortib borayotgan hozirgi sharoitda jinoyat ishlari bo‘yicha kriminalistik metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb sanaladi.

Kontrabanda (lotincha “kontr.” — “qarshi” va ital. “bando” — “hukumat farmoni”) — “Hukumat farmoniga qarshi” degan ma’noni anglatadi. Mamlakatga olib kelish va olib ketish taqiqlangan tovarlar, qimmatbaho buyumlar, valyuta boyliklari va boshqalarini davlat chegarasidan qonunga xilof (yashirincha) usullarda o‘tkazish, shuningdek, taqiqlangan mollarni olib o‘tish uchun noqonuniy harakatlar qilish. Bojxonadan o‘tkazilmagan, xususan, bojxona nazoratidan tashqari yashirincha, topish qiyin bo‘lgan vositalar orqali yoki hujjatlar (deklaratсиya)da ko‘rsatilmagan mollar noqonuniy olib o‘tilgan hisoblanadi. Bunday noqonuniy o‘tkaziladigan mol-mulkning o‘zi ham kontrabanda deyiladi. Kontrabanda qonun bilan jazolanadi. Xalqaro qonunlarga ko‘ra, kontrabanda tovarlari musodara qilinadi, aybdorlar jarima to‘laydi yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi⁵.

Qonun chiqaruvchi quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishni kontrabanda jinoyati sifatida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (JK) 246-moddasida belgilagan bo‘lib, unga ko‘ra,

Kontrabanda, ya’ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratasiyatsiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratasiyadan foydalanib, kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, quro-

² Vawilon.ru/statistika-terrorizma/statistika terrorizma v mire.

³ Vsemirniy doklad o narkotikax 2022 god. www.unodc.org / wdr 2022 / field / WDR_Booklet1_Exsum_Russian.pdf.

⁴ UNICEF Press release, Use of children as ‘human bombs’ rising in north east Nigeria, 17 June 2019 (URL: <https://www.unicef.org/media/media>).

⁵ *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

yarog‘, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish

— besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalarini, radioaktiv materiallarni, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda kontrabanda qilish

— o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi⁶.

Har qanday jinoyatga ta’rif berishda, avvalo uning tarkibi haqida tushunchaga ega bo‘lish lozim. Jinoyat huquqida jinoyat tarkibi – bu, jinoyat qonunida muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan obyektiv va subyektiv elementlar, ulardagи belgilarning minimal va yetarli majmuidir. Shaxsnинг harakatlarda ma’lum bir jinoyatning tarkibi bo‘lgandagina va harakatlarda jinoyat tarkibi aniqlangan qilmish uchungina, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Jinoyat tarkibini jinoyat obyekti va obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni tashkil etadi.

Kontrabanda jinoyati **predmetlari** JK 246-moddasi dispozitsiyasiga asosan:

— kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharovchi;

— portlovchi moddalar;

— radioaktiv materiallar;

— portlatish qurilmalari;

— qurol-yarog‘, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlari;

— giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar;

— diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar;

— kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalar hisoblanadi.

Kontrabanda predmetlarini davlat chegarasi orqali qonunga xilof ravishda o‘tkazish, tegishli shartlar mavjud bo‘lganda, jinoyatlar majmui tariqasida Jinoyatkodeksining 246-moddasi hamda radioaktiv materiallar, giyohvandlik vositalari, kuchli ta’sir qiluvchi zaharli, zaharovchi, portlovchi moddalar, qurol-yarog‘, portlatish qurilmalari va boshqalar bilan muomala qilish qoidalarini buzganlikjavobgarlikni keltirib chiqaruvchi moddalar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bojxona chegarasi orqali JK 246-moddasining **birinchi qismida** qayd etilgan kontrabanda ashyolarini o‘tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlari miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Agar shaxs JK **182-moddasi** ta’siriga tushuvchi tovarlarni bojxona chegarasi orqali o‘tkazish bilan bir qatorda kontrabanda jinoyatini sodir etsa, uning harakatlari JK **182** va **246-moddalarida** nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinadi.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasi

Diniy materiallar bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o'tilgan har bir holatda shaxsning harakatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ularda diniy ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g'oyalari targ'iboti mavjud yoki mavjud emasligi masalasini aniqlash maqsadida **sud-dinshunoslik ekspertizasi** tayinlanishi lozim. Agar ekspertiza natijalariga ko'ra diniy mazmundagi materiallarda ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g'oyalari targ'iboti mavjudligi aniqlansa, shaxsning harakatlari JK [246-moddasi](#) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi⁷.

Bunda, birinchi navbatda, kontrabanda jinoyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur:

- **subyekti** – o'n olti yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxslar (jinoiy zanjirning har qanday ishtirokchisi: tashkilotchi – ishlab chiqaruvchi – tashuvchi, tarqatuvchi – foydalanuvchi (iste'molchi) yoki mulkdor);
- **subyektiv tomondan** – ya'ni qonunbuzarning o'z harakatlariga bo'lgan ruhiy munosabati bo'lib, mazkur jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatni mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun motiv va maqsadning ahamiyati yo'q;
- **obyekti** – jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi va aholi salomatligi;
- **obyektiv tomondan** – kontrabanda ashyolarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan:
 - bojxona nazoratini chetlab o'tkazish;
 - bojxona nazoratidan yashirish;
 - bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikasiyalash vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish;
 - deklaratsiya qilmasdan yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish;
 - chegarani buzib o'tishda ifodalanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldag'i "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 6-10-bandlarida kontrabanda jinoyatining obyektiv tomonlarini quyidagicha izohlab bergen:

- **bojxona nazoratini chetlab o'tkazish** deganda ularni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tkazish punktlaridan tashqari yoki bojxona nazorati o'tkazish vaqtidan tashqari olib kirish yoki mazkur hududdan olib chiqishdan iborat har qanday qasddan sodir etilgan harakatda ifodalanadi.
- **bojxona nazoratidan yashirish** deganda, ularni topishni qiyinlashtirish yoxud ularning asl xususiyati yoki miqdorini yashirish (masalan, ayrim tovarlarga boshqacha ko'rinish berish, ularni almashtirib qo'yish, bojxona identifikasiyalash vositalarini buzmagan holda transport vositalarining yuk bo'limlaridagi tovarlarni olib qolish, o'rniga boshqa turdag'i tovarlarni yuklash, tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan xufiya joylardan (chemodanlar, sumkalar, transport vositalari, konteynerlar va boshqa tashish vositalarining konstruksiyaviy (tuzilish) xususiyatiga ko'ra, ashyolarini saqlash

⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldag'i "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.

yoki tashishga mo‘ljallanmagan bo‘shliqlari, devorlari (ramalari) oralaridan) foydalanish, jinoyat predmetlarini odam, hayvon tanasida va hokazo)ga qaratilgan har qanday harakatlar tushuniladi.

— **bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikatsiyalash vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanish** deganda, jumladan, bojxona organlariga quyidagilarni taqdim etish tushunilishi lozim:

- * bila turib qalbaki hujjatlar;
- * bila turib yolg‘on ma’lumotlar kiritilgan hujjatlar;
- * qonunga xilof ravishda olingen yoki boshqa tovarlarga tegishli hujjatlar;
- * haqiqiy bo‘lmagan hujjatlarni bojxona organlariga taqdim etish, shuningdek qalbakilashtirilgan bojxona identifikatsiyalash vositalaridan (plombalar, muhrlar, tamg‘alar bosish, identifikatsiyalash belgilari, shtamplar va BK 197-moddasida nazarda tutilgan boshqa identifikatsiyalash vositalari) yoki boshqa tovarlarga tegishli haqiqiy identifikatsiyalash vositalaridan foydalanish.

Tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazishning har bir tartibi uchun qonunchilikda bojxona organlariga taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarning alohida ro‘yxati nazarda tutilgan (BK 9, 18-19, 267-moddalari) bo‘lib, unda nazarda tutilmagan hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etmagan shaxsning harakatlari qonunga xilof deb qaralishi mumkin emas.

— **deklaratsiya qilmasdan bojxona chegarasidan o‘tkazish** deganda tovarlarni olib kirish yoki olib chiqish (chiqarish), ularni tanlangan bojxona rejimi ostiga joylashtirish, bojxona to‘lovlarini hisoblash va undirish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan tovarlar haqidagi ma’lumotlarni bojxona deklaratsiyasida bayon qilmaslikni yoxud deklaratsiyalanishi shart bo‘lgan tovarlarni **“yashil” yo‘lak** orqali olib o‘tishni nazarda tutadi.

— **boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish** deganda, bojxona deklaratsiyasida yoki deklaratsiyalashning boshqa belgilangan shaklida tovarlar (nomlanishi, sifati va xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi ma’lumotlar) to‘g‘risida yolg‘on ma’lumotlarni aks ettirish tushuniladi.

Bojxona deklaratsiyasi va bojxona maqsadlari uchun zarur boshqa hujjatlar berilguniga qadar tovarlarni bojxona nazorati ostida ko‘zdan kechirish hamda o‘lchash, ularning namunalari va nusxalarini olish huquqi (BK 275-moddasi)dan deklarantring foydalanmaganligi uning javobgarligini istisno etmaydi.

JK 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning tugallanish payti har bir muayyan ish bo‘yicha tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish usulidan (bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib) kelib chiqqan holda aniqlanishi kerak.

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirgan holda tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish jinoyati tovarlar bilan bojxona chegarasini amalda kesib o‘tgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalangan holda tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazish jinoyati bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi (BK 264-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi bojxona yoki davlat chegaralari orqali ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarini noqonuniy olib o‘tish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- respublika hududiga bojxona chegarasi orqali yoki aylanma yo‘llar orqali ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni noqonuniy olib kirish yoki olib chiqish;
- deklaratsiyalamasdan yoki boshqa tovar niqobi ostida deklaratsiyalab olib o‘tish;
- olib o‘tiladigan tovar to‘g‘risidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni taqdim qilish (qalbaki hujjatlardan foydalangan holda);
- o‘tkaziladigan tovarni yashirish yoki unga boshqa ko‘rinishni berish (huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni aniqlashni qiyinlashtiruvchi turli usul va vositalardan foydalanib).

So‘nggi yillarda aksariyat vayronkor va tajovuzkor kuchlar turli xil diniy-falsafiy qarash va mafkuralarni o‘z manfaatlariga moslashtirib talqin qilgan holda “amaliyotga” tatbiq etishga hamda shu orqali siyosiy hokimiyatni egallashga harakat qilmoqda.

Shuning uchun biz kontrabanda bilan bog‘liq jinoyatlarning yuridik tahlillarini amalga oshirishga harakat qilamiz. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga muvofiq kontrabanda bilan bog‘liq jinoyatlar qatoriga o‘n beshta tarkib jinoyatlar (97-m., 104-m., 105-m., 159-m., 173-m., 182-m., 223-m., 244¹-m., 244⁴-m., 248-m., 251¹-m., 253-m., 273-m., 276-m.) kiritilgan bo‘lib, ushbu jinoyatlar tarkiblarining har biri o‘ziga xosdir. Shu bilan birga JKning 246-moddasida keltirilgan kontrabandani sodir etish usullarini keltirishning o‘ziyoq kontrabanda bilan bog‘liq jinoyatlar tarkiblarini kamida ikki marotaba ortishiga olib keladi.

Ana shunday radikal “kuchlar” toifasiga mansub bo‘lgan hamda dunyo mamlakatlarida turli ko‘rinishda (masalan, oshkora yoki yashirin, legal yoki nolegal) faoliyat olib borayotgan *diniy ekstremistik tuzilmalar* kishilik jamiyatni taraqqiyotiga tahdid solib, bugungi kunda tobora global muammoga aylanib bormoqda.

Lug‘aviy jihatdan olib qaraganda, **ekstremizm** (*lotincha extremus – o‘ta, so‘nggi*) – siyosatda ashaddiy, favqulodda tadbirlar va qarashlarga tarafdarlik ma’nolarini bildiradi . Ekstremistlar barcha dinlarda uchrab turadi.

Diniy ekstremizm keskin choralarini qo‘llashga, ba’zan zo‘ravonlik harakatlarini sodir etishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o‘z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillar ham ta’sir ko‘rsatish obyekti sifatida tanlab olinishi mumkin.

Ammo, A.V.Korovikov fikriga ko‘ra, ekstremizm biron-bir jamiyatda qabul qilingan normalar va qadriyatlarga qarama-qarshi, mutlaq farq qiluvchi xulosalari bilan undan ajralib turadi.

Ekstremizm ham ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, axloq, mafkura sohasiga, ham ijtimoiy guruhalr (**ijtimoiy ekstremizm**), etnik guruhalr (**etnik yoki milliy ekstremizm**), jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, davlatlar (**siyosiy ekstremizm**), konfessiyalar (**diniy ekstremizm**) o‘rtasidagi munosabatlarga taaluqlidir.

Separatizm (*lotincha* “separatus” - *alohida*) - ajralish, alohidalashishga intilish; davlatning bir qismini ajratishga va yangi davlatni tashkil etishga yoki davlat hududining bir qismi uchun avtonomiyaga harakat qilish ma’nosini anglatadi.

Aqidaparastlik (*arabcha* “qoida” va *forscha* “parast” so ‘zlaridan, qoidaga ko ‘r-ko ‘rona berilish) – qoidalarga dalilsiz va isbotsiz, ko‘r-ko‘rona ishonishga, o‘zgarmas tushuncha va qarashlarga asoslangan tafakkur uslubi va xatti-harakatlar. Aqidaparstlikning turli ko‘rinishlari mavjud. Ulardan biri – diniy aqidaparastlik, voqeа va hodisalarga aniq-tarixiy yondoshuv tamoyilini inkor etadi.

Eng muhimmi, O‘zbekiston Respublikasida har bir insonga diniy e’tiqod erkinligi kafolatlangan. Bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda 05.07.2021-yildagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-699-sonli Qonunda o‘z aksini topgan. Taasuflar bo‘lsinki, din niqobi ostidagi turli-tuman norasmiy harakatlar va jinoiy guruuhlar XX asrning 80-90-yillarida O‘zbekiston hududiga kirib kelib, jinoiy maqsadlarga erishishda diniy dunyoqarashi mukammal bo‘lmagan shaxslarni, ayniqsa, yoshlarni o‘ziga jalb qilib, moddiy mablag‘lar sarflab, davlatdagi kriminogen vaziyatni keskinlashtirishga harakat qilishdi, o‘ta og‘ir jinoyatlarga qo‘l urdi va urmoqda. Bu esa ularning ijtimoiy xavfli qonunga xilof qilmishlarini yuridik jihatdan to‘g‘ri baholash uchun jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligiga yangi moddalar kiritish zaruratini keltirib chiqardi.

O‘zbekiston davlati xalqimizning o‘tmishi bilan uzviy bog‘liq, bugungi kunda ma’naviyatimizning ajralmas qismiga aylangan islom dinidan siyosiy maqsadlariga erishish vositasi sifatida foydalanmoqchi bo‘lgan ekstremist, ayirmachi va terrorchi jinoyatchilarining jinoyatlarini fosh etish, jinoyatiga yarasha jazolash, qilmishi uchun javobgarligi muqarrarligini ta’minalash prinsiplari asosida bu turdagи jinayatlarga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘ldi.

Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm ta’sirini o‘z mamlakati misolida tahlil qilar ekan, AQSh prezidenti Jorj Bush: “Biz Islom diniga qarshi emasmiz, hech qachon qarshi bo‘lgan emasmiz va hamisha Islom dinini hurmat qilib yashamiqdamiz, millionlab Amerika fuqarolari ham Islom diniga erkin e’tiqod qilib kelmoqda, bunga hech qanday to‘siq yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas⁸”, – deb ta’kidlab, ko‘philik davlatlar hududida o‘rnashib olgan terrorchi jinoyatchilar, ularning markaz, mashq maydonlarini moddiy jihatdan ta’minalayotgan manbalarni yo‘q qilish zarurligiga alohida urg‘u berdi.

Hozirgi kunda bojaxona organlarida foydalanilayotgan bojaxona nazoratining texnik vositalari shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Radiatsiya nazoratini amalga oshirishda foydalaniladigan texnik vositalari.
2. Valyuta hamda qimmatbaho qog‘ozlar va hujjatlarning aslligini tekshirish texnik vositalari.
3. Qo‘l yuklari va bagajlarni rentgen qilish apparati.
4. Bojaxona ko‘rigini o‘tkazishda qo‘llaniladigan texnik vositalari.
5. Kontrabanda ashyolari hisoblanuvchi materialar, moddalar va buyumlarni identifikatsion ekspress tahlil qilish.
6. Inspeksion tekshiruv majmualari.

⁸ Islom Karimov Terrorizm xavfi to‘g‘risida. Tuzuvchi mualliflar: Sh.R.Qobilov, B.U.Tadjixanov

7. Bojxona nazorati zonasini vizual kuzatish (videokuzatuv tizimi).

8. Audio, video va turli ma'lumot tashuvchilarni nazorat qilish (kompyuter, noutbuk, fleshka, disk).

Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 180-sonli Qarori talablariga asosan dinshunoslik ekspertizasini tayinlash lozim bo'ldi.

Hozirgi kunda keng tarqalgan va O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy, balki jamoat xavfsizligiga ham tahdid qilayotgan jinoyatlardan biri kontrabanda jinoyatidir. Kontrabanda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning markaziy bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kontrabanda jinoyatini sodir etuvchi shaxslar o'zlarning jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tarzida, o'z harakatlarini puxta niqoblab, sodir qilish uslublarni mukammallashtirib, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sodir etmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida kontrabanda jinoyatiga qarshi kurashish bojxona idoralarining eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Respublikamiz narkobiznes va qurol-yaroq kontrabandasi, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish borasida xalqaro maydonda barcha davlatlar bilan keng miqyosda hamkorlikni amalga oshirmoqda.

Bojxona qo'mitasi boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda davlatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan kriminal guruhlarni aniqlash va ularni jinoiy harakatlarini oldini olish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Bojxona xizmati xodimlari tomonidan ko'p miqdorda narkotik moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar, psixotrop moddalarining tabletkalari va ampulalari, o'qotar qurollari va o'q-dorilar, ekstremistik mazmundagi materiallar ushlanib, sodir etilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldi olinmoqda.

Sudga oid ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishini, shuningdek, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olishni tartib-qoidalari hamda protsessual asoslari JPKning 172-187-moddalarida belgilab qo'yilgan.

Sudga oid ekspertiza tayinlash va o'tkazish – fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan shaxsning, ma'muriy va jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirayotgan mansabdar shaxsning ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorida oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha maxsus tekshirish o'tkazganidan keyin javob berishidan iborat bo'lgan tergov harakatidir. Maxsus bilimga ega bo'lgan va surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga muvofiq shunday xulosa beradigan jinoyat protsessi ishtiroychisi **ekspert** hisoblanadi.

Ekspertizalar o'z maqsadi, mazmuni va o'tkaziladigan obyektlari hamda savollarni hal qilish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim turiga qarab guruhlarga (kriminalistik, trasologik, daktiloskopik, ballistik, xatshunoslik, avtorlik, hujjatlarni tekshirish, fonoskopik, portretlik, tovarshunoslik, metallshunoslik, narkotik vositalar, sud-tibbiy, sud-psixiatrik, biologik, sud-iqtisodiy va boshqalar) ajratiladi.

Kontrabanda ashyolarini bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlarda tegishli ekspertizalar tayinlanib, o'tkaziladi.

Ekspertiza o'tkazish orqali, aynan qanday kontrabanda ashyolarini noqonuniy olib o'tishga urinilgani, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari aniqlanadi. Kontrabanda jinoyatiga oid ishlar bo'yicha kriminalistik, daktiloskopik, ballistik, trasologik, dastxatshunoslik, materiallar, moddalar va boshqa ekspertizalar o'tkaziladi.

Shuningdek, kontrabanda ashyosi - qurol-yarog'ni noqonuniy yo'l bilan olib o'tish bilan bog'liq bo'lsa, quronga oid (ballistik), diniy ekstremizm va separatizmni targ'ib qiluvchi materiallar mazmunini aniqlash maqsadida **dinshunoslik ekspertizasi** o'tkaziladi.

Kontrabanda ashyosi sifatida olib qo'yilgan diniy mazmundagi materiallar yuzasidan "Sud-dinshunoslik ekspertizasi" tayinlanib, ekspertlar oldiga quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

- olib qo'yilgan materiallar diniy mazmundagi materiallar turkumiga kiradimi yoki kirmaydimi ?

- diniy mazmundagi materiallar turkumiga kirgan taqdirda, ular Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan O'zbekistonga olib kirish va foydalanishga ruxsat etilgan diniy adabiyotlar ro'yxatiga mansubmi ?

- olib qo'yilgan materiallarda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi ma'lumotlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlesi)da mavjud ?

- olib qo'yilgan materiallarda ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rigan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma'lumotlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlesi)da mavjud ?

- olib qo'yilgan materiallarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud Qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilishlar mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, materialning aynan qaysi qismi (jumlesi)da mavjud ?

- olib qo'yilgan materiallar O'zbekiston Respublikasida faoliyati cheklangan yoxud taqiqlangan tashkilotlarga tegishlimi? Agarda tegishli bo'lsa qaysi faoliyati cheklangan yoxud taqiqlangan tashkilotga mansub ?

- olib qo'yilgan materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (olib chiqish) uchun biron-bir cheklov yoxud ta'qiqlar mavjudmi? Agarda mavjud bo'lsa ular qaysi qonun va qonun osti hujjalarda aks ettirilgan ?

Bundan tashqari, har bir ish hujjalardagi tafsilotlarini inobatga olib, ishni qonuniy hal etish uchun boshqa ahamiyatli savollar ham qo'yilishi mumkin.

Kontrabanda to'g'risidagi ishlar bo'yicha ayrim hollarda kontrabanda holatini sodir etgan odamning pasport va boshqa turdag'i shaxsini tasdiqlovchi hujjalarning haqqoniyligini tekshirish zarurati tug'iladi. Hujjatni qalbaki deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, kriminalistik ekspertiza tayinlanadi va ekspertlar oldiga pasport qanday yo'l bilan – tipografik yoki boshqa usulda

taylorlanganligi, hujjat qandaydir o‘zgarishlarga uchraganligi, fotosurat almashtirilganligi kabi savollar qo‘yiladi.

Shuning uchun xorijiy davlatlar bojaxona xizmatlarining boy amaliy tajribasini inobatga olgan holda, bojaxona postlarida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishga mo‘ljallangan va maxsus jihozlangan xonalarida maxsus audio-video qurilmalar o‘rnatish hamda fotografiya usullaridan samarali, axloq qoidalariga amal qilgan holda foydalanish, kontrabanda buyumlarini ashyoviy dalil sifatida olish jarayonini, huquqbuzarning his-tuyg‘ularini yozib, mustahkamlash e’tiborga molikdir.

Kontrabanda ashyolarini olib o‘tishda gumon qilinuvchi shaxs yoki bir guruh shaxslarning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish – ushlab turish qo‘llanilishi mumkin.

Bunday hollarda ushlagan xodim ushlangan shaxsga o‘zini tanishtirishi va tasdiqlovchi hujjatini ko‘rsatishi hamda uning huquq va majburiyatlarini o‘qib eshitirishi shart, ya’ni:

“... Siz jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlandingiz. Siz o‘zingizga qarshi ko‘rsatmalar bermasligingizni, shu bilan birga barcha aytganlaringiz dastlabki tergov va sudda Sizga nisbatan dalil sifatida qo‘llanilishi mumkinligini habar qilaman. Siz yaqin qarindoshingizga yoki o‘zingizning himoyachingizga ushlanganligingiz va qaerda ushlab turilganligingiz haqida telefon orqali habar berishingiz mumkin. Siz qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotganligingiz haqida bilishga huquqingiz bor...”⁹.

Tabiiyki, bunday qilmishlar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidagi qator normalar bilan taqiqlangan va ularni sodir etgan jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Diniy ekstremistik, fundamentalistik, separastik oqimdagilarning qilmishini jinoyat deb baholash uchun olimlar va amaliyotchi xodimlar (tezkor xodimlar, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda, advokat) musulmon haqidagi davlatchilik masalalarini bilishlari lozim.

Achinarilisi shundaki, XX asrning oxirida aqidaparastlar va islom niqobi ostida hokimiyatga intilayotgan diniy ekstremistik oqimlarning a’zolari xalifalikka qaytish to‘g‘risidagi o‘ta tor, mutaasib, dinlar va millatlar orasiga nizo soladigan, eng muhimi, shariatdagi barcha insonlar, irqi, jinsidan qat’iy nazar, tengligi, insonparvar bo‘lish, o‘zaro hamkorlikda yashash,adolat bilan ish yuritish, halol mehnat evaziga kun kechirish, begunoh insonlarning qonini nohaq to‘kmaslik haqidagi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ijobiylar g‘oyalarni ochiqdan ochiq rad etib, xalqaro terrorchlik va din niqobi ostidagi ekstremizmni avj oldirib, butun insoniyat hayotiga tahdid solishga urinmoqda.

Ekstremistlar respublikamiz hududida dinni o‘zlariga niqob qilib olib, yoshlarni dinga o‘rgatish bahonasida, ularning onglarini norasmiy diniy ekstremistik oqimlarning g‘oyalari bilan zaharlar moqdalar. Ular O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan ochiq da’vat qilish, shuningdek bunday mazmundagi materiallarni tarqatish bilan shug‘ullanmoqdalar. Shu kabi jinoyatlarga qarshi kurashda Jinoyat Kodeksida bir qator moddalar kiritilgan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 27-moddasi

Islom o‘ta “kuchli” din bo‘lib, faqat Xudoga ishonishdan uzoqdir. Boshqa jahon dinlari singari u ham hayot tarzini, tafakkur tarzini, qolaversa, butun bir sivilizatsiyaning asosini ifodalaydi. Tizimli xarakterga ega bo‘lgan bu din insonning tug‘ilishidan to o‘limigacha bo‘lgan hayotining barcha jabhalarini musulmon jamiyatida belgilaydi. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, “islom ekstremizmi” atamasining o‘zi ilmiy nuqtayi nazardan mutlaqo to‘g‘ri emas. Biz albatta, islom dinidan diniy mafkura sifatida foydalanadigan ekstremizm haqida gapiryapmiz¹⁰.

Holbuki, “... islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi¹¹”.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Xulosa qilib, shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda kontrabanda jinoyatiga qarshi kurashish bojxona idoralarining eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamiz xalqaro maydonda giyohvandlik vositalari, ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar kontrabandası, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish borasida barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilib kelmoqda.

Davlat bojxona xizmati organlari boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda jamoat xavfsizligi va tartibi hamda aholi salomatligiga tahdid solayotgan jinoiy guruhlarni fosh etish va ularning faoliyatiga chek qo‘yish borasida samarali ish olib bormoqda.

1-Taklif: “Yuridik shaxslarning javobgarligi

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyatlar yuridik shaxsning topshirig‘iga binoan yoki foydasini ko‘zlab sodir etilganda jismoniy shaxs bilan bir qatorda yuridik shaxslar ham javobgarlikka tortiladi.

Fuqarolik qonunlari asosida yuridik shaxs maqomiga ega tijorat va notijorat tashkilotlar jinoiy javobgarlikka tortiladi.”

Tahlil qilinganda, hozirgi vaqtida Avstraliya, Angliya, Belgiya, Vengriya (2001), Daniya, Isroil, Irlandiya, Islandiya (1998), Kanada, Xitoy (1997), Gollandiya (1976), Norvegiya (1991), Polsha (2002), Ruminiya (2004), Sloveniya (1999), AQSh, Finlyandiya (1995), Frantsiya (1992), Shveytsariya (2003) (deyali barcha anglo-sakson jinoyat qonunchiligidagi), shu jumladan ayrim sobiq MDH mamlakatlari qonunchiliklarida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarlik instituti nazarda tutilgan.

Kontrabanda jinoyatining 2-qismi uchun jismoniy shaxslarni javobgarlikka tortishni 14 yoshdan boshlab belgilash hamda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yuqoridaq mazmunda alohida qo‘sishimcha yangi norma kiritish taklifini bildiraman.

¹⁰ Bagliyev Murod Aliyevich siyosiy fanlar nomzodi “Zamonaviy islom ekstremizmining siyosiy jihatlari: Misr misoli” mavzusidagi dissertatsiya 2002-yil.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqadan. Toshkent shahri. 15-iyun 2017-yil.

2-Taklif: Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va **jinoyat qonunchiligin liberallashtirish** hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikni **xalqaro va milliy qonunchilik talablariga moslashtirish** maqsadida **JKning 246-moddasi 1-qismini** quyidagicha ta'riflash:

“246-modda. Kontrabanda

Kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratasiyaz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratasiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurolyarog', o'qotar qurolni, o'q-dorilarni yoki o'qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki **ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni** O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish"

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyul kunidagi "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-489-sonli Qonunining 3-moddasiga asosan, "**Ekstremizm** — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqi, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi", - deb ta'rif berilgan.

Demak, ekstremistik guruh va (yoki) ekstremistik tashkilotda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqi, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga doir faoliyatni ekstremistik faoliyat deb ataladi.

Qonunga muvofiq, "ekstremizm" tushunchasi, "diniy ekstremizm" tushunchasidan ko'ra umumiyl tushuncha hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasining dispozitsiyasi va JKning boshqa moddalaridagi "diniy ekstremizm" degan so'zlar "ekstremizm" degan so'z bilan almashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-Taklif: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergen-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanishi, shuningdek bu ma'lumotlar guvochning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanishi belgilangan.

Biroq, jinoyat-protsessual qonunchilikda "elektron ma'lumotlar"ni dalil sifatida e'tirof etilishi bo'yicha protsessual normalar mavjud emas. Ma'lumki, jinoyat ishini qonuniy, asosli va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lgan isbot qilish bosqichida dalillar muhim ahamiyatga ega.

Demak, “elektron dalil” tushunchasi dasturiy ta’minot xususiyatlariga qarab elektron-texnik qurilma yoki elektron ma’lumotlarning boshqa turdagи tashuvchilarida avtomatlashtirilgan holda shakllantiriladigan, u yerda mavjud bo‘ladigan va saqlanadigan, raqamli belgilar yoki signallar majmuasi sifatidagi ish uchun ahamiyatli bo‘lgan elektron ma’lumotlar elektron dalillar sifatida hisoblanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga “Elektron dalillar” nomli 81¹-moddasini kiritish va u quyidagicha ta’riflanadi:

81¹-moddasi. Elektron dalillar

Elektron dalil texnika vositalari va axborot tizimlari xizmatlari hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratilgan, ishlov beriladigan, saqlanadigan va identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan, shu bilan birga boshqa rekvizitlardan iborat jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan axborotlardir. Elektron dalillar jinoyat ishi yuritilayotgan organga yoki sudga elektron saqlovchi qurilmalar vositasida yoxud elektron manzil orqali taqdim qilinishi mumkin.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan elektron dalillar yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan ekspertiza tayinlanishi yoxud mutaxassis jalb qilinishi mumkin. Elektron dalillar bo‘lib elektron hujjatlar, elektron yozishmalar va chizmalar, elektron jadvallar va grafiklar, internet ma’lumotlari, audio-video yozuv va boshqa axborot texnika vositasida tayyorlangan ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. “O‘zbekiston” 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
4. “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (1999-y.) Xalqaro Konvensiya.
5. 1982-yil 21-oktabrdagi “Chegaralarda yuklar nazoratini amalga oshirish shartlarini kelishish to‘g‘risida”gi Jeneva Konvensiyasi.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-sonli Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyulidagi “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-sonli Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagи “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlар bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar T.: “O‘zbekiston” – 2006-yil.
10. I.R.Astanov, Sh.U.Samandarov “Ekspertiza tayinlash va o‘tkazish tartibi” uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Sahhof” nashriyoti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasи, 2021-y. -160 b.
11. “O‘zbekiston Yuridik ensiklopediyasi”, T., “Adolat”, 2010-yil.

Elektron ta'lif resurslari:

- www.ziyonet.uz
- www.lex.uz
- www.customs.uz
- [http://www. Norma.uz.](http://www.Norma.uz)
- [http://www. minjust.uz](http://www.minjust.uz)